



TURIZMNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ro'zmetov Sherzod Qahramanovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turizmni ilmiy tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Turizm ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida ko'rib chiqilib, uning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari, qiyosiy tahlil, statistik usul, institutsional va funksional tahlil metodlaridan foydalanishning ilmiy ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, turizmni o'rganishda fanlararo integratsiyaning o'rni ochib berilib, iqtisodiyot, geografiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada zamonaviy turizm nazariyalari hamda Barqaror rivojlanish konsepsiyasi kontekstida turizmni tahlil qilishning dolzarbligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari turizm sohasini chuqur o'rganish va samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *turizm, nazariy asoslar, metodologiya, tizimli yondashuv, tarixiy tahlil, institutsional yondashuv, barqaror rivojlanish, fanlararo integratsiya, turizm iqtisodiyoti.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of tourism research within a comprehensive scientific framework. Tourism is examined as a socio-economic phenomenon, highlighting its conceptual essence, structural components, and patterns of development. The study substantiates the scientific significance of applying systemic approaches, principles of historicity and logical analysis, comparative methods, statistical tools, as well as institutional and functional analysis in tourism research. Furthermore, the article emphasizes the importance of interdisciplinary integration, demonstrating the interconnection of tourism studies with economics, geography, sociology, and cultural studies. Particular attention is given to contemporary tourism theories and the relevance of analyzing tourism within the context of sustainable development. The findings provide a methodological basis for in-depth research and effective governance mechanisms in the tourism sector.*

Keywords: *tourism, theoretical foundations, methodology, systemic approach, historical analysis, institutional approach, sustainable development, interdisciplinary integration, tourism economics.*

Jahon iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida turizm iqtisodiyotning yetakchi va eng jadal sur'atlarda rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizm yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining



bandligini ta'minlash, shuningdek, tashqi savdo balansini faollashtirishda muhim rol o'ynay boshladi. Shu bilan birga, turizm Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining transport, aloqa, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ustuvor tarmoqlarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos katalizatori sifatida namoyon bo'lmoqda.

Turistik biznes katta hajmdagi dastlabki investitsiya mablag'larini talab etmasligi, turizm bozorida yirik, o'rta va kichik korxonalar samarali tarzda o'zaro hamkorlik qilishi, turistik biznes kapitalning tez aylanishi bilan ajralib turishi kabi omillar moliyaviy investitsiyalarning qisqa muddatda o'zini oqlashiga xizmat qiladi.

Turizm jahon iqtisodiyoti hamda muayyan mintaqah mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirning asosiy yo'nalishlari sifatida iqtisodiyotni umumiy rag'batlantirish va uning diversifikatsiyasini ta'minlash, aholiga xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishini tezlashtirish, transport sektorini takomillashtirish, qurilish sohasining rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyotni, eng avvalo axborot va aloqa vositalarining rivojlanishini rag'batlantirish, bank va sug'urta xizmatlari tizimini takomillashtirish, aholining bandligini ta'minlash hamda turistik xizmatlar bozori kadrlar salohiyatini rivojlantirish kabilar e'tirof qilinadi[1].

Jahon xo'jaligining hozirgi rivojlanish bosqichida turizm batafsil o'rganilayotgan sohalardan biri hisoblanishiga qaramay, bugungi kunda ushbu sohaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishiga imkon beradigan fundamental nazariy bilimlar yetishmasligi sezilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda turizm alohida mustaqil tarmoq sifatida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir necha tarmoqlar majmui sifatida talqin etiladi. Turizm sohasiga bunday yondashuv, avvalo, aniq moddiy mahsulot ishlab chiqarish jarayonining mavjud emasligi bilan izohlanadi. Mazkur holatda asosiy muammo shundan iboratki, korxonalarning faqatgina oz qismi tovarlar va xizmatlarni bevosita va faqat sayyohlar uchun ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, ularning aksariyati mahalliy aholi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Shu sababli turizmni milliy yoki mintaqaviy iqtisodiyot doirasida alohida tarmoq sifatida emas, balki ma'lum darajadagi "turistik yo'nalganlik" (profil)ga ega faoliyat sohasi sifatida baholash mumkin.

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy hodisaning mohiyati, muayyan darajada, uning ta'rifida o'z ifodasini topadi. Turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida ko'plab ta'riflarning mavjudligi bilan tavsiflanadi va ushbu ta'riflar doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlar hamda takomillashtirish jarayonidan o'tkazib kelinadi.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1954-yilda qabul qilingan ta'rifga ko'ra, "Turizm — bu inson salomatligini mustahkamlashga, uning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi faol dam olish turi bo'lib, doimiy yashash joyidan tashqariga chiqish bilan bog'liq jarayondir"[2]. Ushbu ta'rifda uchta muhim



jihat ajratib ko'rsatiladi: birinchidan, turizm dam olish turi sifatida talqin qilinadi; ikkinchidan, uning aholi salomatligiga ta'siri alohida ta'kidlanadi; uchinchi esa, turizm muayyan muddat davomida yashash joyining o'zgarishi bilan bog'liq faoliyat sifatida qaraladi.

1981-yilda Jahon turizm tashkiloti (JTT) tomonidan o'tkazilgan Jahon turizm konferensiyasi materiallarida turizm faol dam olish turlaridan biri sifatida talqin etilib, u alohida hududlar, yangi mamlakatlarni bilish va o'rganish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlar majmui sifatida ta'riflanadi hamda ayrim mamlakatlarda sport elementlari bilan uyg'unlashgan faoliyat sifatida e'tirof etiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1963-yilda qabul qilingan ta'rifga ko'ra: "Turizm — bu shaxslarning odatdagi yashash muhitidan tashqarida joylashgan hududlarga bir yilgacha bo'lgan muddat davomida dam olish, ishbilarmonlik va boshqa maqsadlarda sayohat qilishi hamda vaqtincha bo'lib turish bilan bog'liq faoliyatidir." Ushbu ta'rifda turistik xizmatlar ko'rsatiladigan obyekt, xizmat ko'rsatish muddati hamda mazkur xizmatlardan foydalanish maqsadlari aniq belgilab berilgan.

Ilmiy adabiyotlarda turizm tushunchasini talqin etishga oid yondashuvlar nihoyatda xilma-xildir. Ayrim mualliflar "turizm — bu sayohatchining notijorat yoki kasbiy bo'lmagan sabablarga ko'ra yashash joyini vaqtincha va ixtiyoriy ravishda o'zgartirishi bilan bog'liq bo'lgan o'zaro munosabatlar hamda xizmatlar majmui" [3], deb hisoblaydilar.

Boshqa tadqiqotchilar esa turizm tushunchasini quyidagicha izohlaydilar: "turizmni alohida bir mamlakat milliy xo'jaligi doirasidagi, shuningdek, milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi bilan o'zaro aloqalari tizimida shakllanadigan turli elementlar o'rtasidagi ko'p qirrali bog'liqliklarga ega bo'lgan yirik iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqish lozim [4]".

Turizmning iqtisodiy tabiatini aniqlash bo'yicha turli yondashuvlarni tahlil qilgan holda, turizm — bu insonlarning yashash va ish joylaridan vaqtincha va ixtiyoriy ravishda erkin harakatlanishi bo'lib, bilim olish, dam olish, sog'lomlashtirish, kasbiy yoki ishbilarmonlik, sport, diniy va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi. Shu harakatlar natijasida yuzaga keladigan ehtiyojlarni qondirish uchun turistik xizmatlar va xizmatlar sohasidagi infratuzilma faoliyat ko'rsatadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Shu bilan birga turizm tushunchasining ilmiy-terminologik tarkibi: subyekt (sayyohlar yoki shaxslar guruhi) – turistik xizmatlardan foydalanuvchilar, ya'ni harakat qiluvchi shaxslar; maqsad (turizm faoliyatining yo'nalishlari) – turizmning ijtimoiy, madaniy, sog'lomlashtiruvchi, kasbiy- ishbilarmonlik, sport va boshqa funksiyalari; infratuzilma (turistik xizmatlar tizimi) – turistik ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan mehmonxonalar, transport, ovqatlanish, ko'ngilochar, sog'lomlashtirish va axborot-kommunikatsion xizmatlar tizimi kabi uchta asosiy komponentdan iborat ekanligini qayd etish lozim.





Bizning fikrimizcha, turizm nafaqat iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i, balki ijtimoiy-madaniy va madaniy-iqtisodiy tizim sifatida ham qaraladi, u milliy va global iqtisodiyot elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Писаревский Е. Актуальные вопросы развития туризма в РФ // Туризм: право и экономика. 2009. № 3. - С. 5.
2. Иванов В. Проблемы развития туристической сферы // Российский туристский бюллетень № 1 (3). 1995. - С. 63.
3. Александрова А. Структура туристского рынка. Москва : Пресс-Соло. 2004. - С. 57
4. Азар В. Очевидные проблемы развития туризма в России // Труды Академии туризма Вып. 3. СПб. 2004. - С. 22-23.

